

BOG'LOVCHILARNI O'QITISH MAVZUSIGA OID METODIK TAVSIYALAR

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

3-kurs 312-guruh talabasi

Ro'ziyeva Kamola

Annotatsiya: Ushbu maqolada boglovchilarning qollanilishiga kora turlari, ularning gap bo'laklari va gaplarni bir-biriga boglanishiga kora turlari, hamda boglovchilarning vazifalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit sozlar: boglovchilar, teng va ergashtiruvchi boglovchilar va ularning turlari, yakka va takror boglovchilar.

Bog'lovchilar gapdagi uyishgan bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydigan yordamchi sozlardir. Masalan, Ko'pchilik o'z vaqtida keldi, ammo ba'zi birlar kech qoldi.

Bog'lovchilar qo'llanilishiga ko'ra ikki turga bolinadi: 1) yakka bog'lovchilar: uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida qo'llanadi (va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yoki, agar, ya'ni, chunki kabi) 2) takroriy bog'lovchilar: bir gapda ikki yoki undan ortiq o'rinda gap bo'laklari bilan shuningdek, qo'shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi (dam...dam, goh...goh, ba'zan...ba'zan, yo...yo kabi).

Bog'lovchilar grammatik jihatdan o'zgarmaydi va lug'aviy ma'noga ham ega emas. Ular grammatik ma'no va vazifasiga ko'ra teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi.

Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va sodda gaplarni teng munosabatda bog'laydi. Ular ham quyidagi guruhlariga bo'linadi 1) biriktiruv 2) zidlov 3) ayruv 4) inkor

1) Biriktiriv bog'lovchilari: va, hamda yordamchilari orqali, ular gapning uyushiq bo'laklari yoki sodda gaplarni bog'laydi. Masalan: Aziza, Adiba va Rayhona a'lochi qizlar.

2) Zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq kabi so'zlar ba'zida esa -u,-yu,-da qo'shimchalari bilan qo'llanilib, mazmuni bir-biriga zid bo'lgan gap va gap bo'laklarini o'zaro teng bog'laydi. Masalan: U juda charchagan edi, ammo ishlarini yakunlab qo'yishga qaror qildi. (Primqul Qodirov)

3) Ayruv bog'lovchilari: uyushiq bo'laklarini yoki gaplarni bir-biridan ajratib, ta'kidlab bog'laydi. Hozirgi kunda kop qo'llanadigan bog'lovchilar yo, yoki, yoxud, dam...dam, bir...bir, ba'zan...ba'zan, goh...goh kabilar. Masalan: Goh quyosh chiqadi, goh yomg'ir yog'adi.

4) Inkor bog'lovchilari: na so'zidan iborat bo'lib, uyushiq bo'laklarni yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni inkor ma'nosida bog'laydi. Masalan: Unda na daftar, na ruchka bor.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar: ergashgan qo'shma gap tarkibidagi qismlarni ergashtirib, tobelash yo'li bilan bog'laydi. Bu turdagi bog'lovchilar gaplarni mazmunan bog'lashiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) Aniqlov bog'lovchilari: ya'ni, -ki, -kim qo'shimchalari orqali ergash gapni bosh gapga bog'laydi. Masalan: Deydilarkim, hamma ham vijdonli emas.

2) Sabab bog'lovchilari: chunki, shuning uchun kabi yordamchilar bilan qo'llanilib, ish-harakatning sabab, natijasini bildiradi. Masalan: Bobur oxirgi paytlar juda o'ychan edi, chunki oldinda bundanda mashaqqatli kunlar kutib turganini bilardi. (Primqul Qodirov)

3) Shart bog'lovchilari: agar, gar, agarda, basharti, garchi kabi yordamchilar bilan kelib, to'siqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatiga sharting, shu bilan birga, to'siqsizlik ma'nolarini anglatadi.

4)Chog'ishtiruv bog'lovchilari: go'yo, go'yoki, xuddi kabi yordamchilar bilan kelib bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko'rsatadi. Masalan: Bog'i maydon darvozasiga yetkanda go'yo yer yutganday yo'q bo'lib qoldi (Odil Yoqubov)

1-topshiriq: Matndagi bog'lovchilarni aniqlang, turlarini belgilang va topshiriqlarini bajaring.

Maktabimizda har yili an'anaviy tarzda sport haftaligi o'tkaziladi. Bu haftalik doirasida turli sport musobaqalari tashkil etiladi va barcha sinflar faol qatnashadi. Dushanba kuni boshlang'ich sinflar o'rtasida yugurish musobaqasi bo'lib o'tdi, ammo ob-havo biroz sovuq edi. Ba'zan quyosh ko'rinar, ba'zan esa bulutlar quyoshni to'sib qo'yardi. Kamol va Javohir yugurish bo'yicha yetakchi bo'lishdi, lekin ular har doim birinchi o'rinni egallashmaydi. Agar Kamol muntazam mashq qilsa, u viloyat musobaqasida ham g'olib bo'lishi mumkin. Chunki u juda chaqqon va qat'iyatli. O'qituvchilar musobaqani baholab, sovrinli o'rinlarni aniqladilar. Na Kamol, na Javohir mag'lubiyatdan nolimadi. Aksincha, ular yana ko'proq harakat qilishga qaror qilishdi. Musobaqa nihoyasida esa barcha qatnashchilar sertifikatlar bilan taqdirlandi, go'yo ular jahon chempionatida qatnashgandek xursand edilar.

2. Har birini quyidagi jadvalga joylashtiring:

Bog'lovchi so'z	Qo'llanish turi	Grammatik turi	Vazifasi

2-topshiriq: Berilgan testlarni bajaring va bog‘lovchilarning ishlatilishiga e’tibor bering.

1. Qaysi qatorda takror bog‘lovchi ishlatilgan?

- A) U yaxshi o‘qiydi va sport bilan shug‘ullanadi.
- B) Men unga aytdim, ammo u ishonmadi.
- C) Yo u keladi, yo men boraman.
- D) Men kitob o‘qiyman, chunki bu foydali.

2. “Na oy bor, na kun” gapidagi na bog‘lovchisi qanday turga kiradi?

- A) Biriktiruv
- B) Ayruv
- C) Inkori bog‘lovchi
- D) Sharti bog‘lovchi

3. Quyidagi qaysi bog‘lovchi zidlov munosabatni bildiradi?

- A) hamda
- B) ammo
- C) yoki
- D) chunki

4. Qaysi bog‘lovchi sabablilik ma’nosini anglatadi?

- A) go‘yo
- B) lekin
- C) chunki
- D) yo...yo

5. “Go‘yo u bizni eshitmayotgandek edi” gapidagi go‘yo bog‘lovchisi qanday turga kiradi?

- A) Zidlov
- B) Sabab
- C) Chog‘ishtiruv
- D) Inkori

Xulosa: Bog‘lovchilar — gap bo‘laklari va sodda gaplar o‘rtasida grammatik va mantiqiy aloqani ta’minlaydigan vosita bo‘lib, tilning sintaktik qatlamida muhim strukturaviy rol o‘ynaydi. Ular matnning yaxlitligi, izchilligi va mazmuniy uyg‘unligini shakllantiradi. Bog‘lovchilarning teng va ergashtiruvchi turlarga, shuningdek, yakka va takroriy shakllarga bo‘linishi ularning gap tuzilmasidagi vazifasini yanada aniqlashtiradi. Shu jihatdan bog‘lovchilarni o‘rinli, uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llash nafaqat nutq madaniyatini yuksaltiradi, balki fikrni murakkab, aniqligi bilan ifodalash imkonini ham beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Universitet” — 2006
2. Shoabdurahmonov. Sh, Asqarova. M, Hojiyev. A, Rasulov. I, Doniyorov. X, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “O‘qituvchi” — 1980
3. E. Qilichev, O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 1992-yil

4. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - 2009

5. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov,D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedov 7-sinf ona tili darslik, Toshkent “Ma’naviyat” —2017